

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

X. E. SULTANOV, S.T. SOBIROV

TASVIRIY SAN‘AT O‘QITISH METODIKASI 1-SINF UCHUN

O‘quv qo‘llanma



TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO‘K 37.016:75(075)

KBK 74.268.51я73

S 96

Mualliflar:

X. E. Sultanov – CHDPI “Tasviriy san’at” kafedrası mudiri, dotsent

S.T. Sobirov – CHDPI “Tasviriy san’at” kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

B.B. Baymetov – CHDPI “Tasviriy san’at” kafedrası professori, p.f.n

Sulaymonov A – TAQI “Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti, p.f.n

Ushbu o‘quv qo‘llanma 5111700 - Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari va tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bugungi kun talablarini hisobga olingan holda tuzildi.

Qo‘llanma talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga usulida ishlab chiqilgan. O‘quv qo‘llanma talabalarni “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi” fanining nazariy hamda amaliy asoslari bilan tanishtiradi. U tasviriy san’at darslarining to‘rt turi: borliqni idrok etish, narsaning o‘ziga qarab rasmini chizish, badiiy qurish-yasash va mavzu asosida rasm chizish, san’at asarlarining tahlili va suhbat darslarini o‘tkazishga oid dars ishlanmalarni o‘z ichiga olgan. Shuningdek, qo‘llanmada tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan umumiy metodik ko‘rsatmalar ham berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7092-9-4

KIRISH

Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur ijtimoiy va iqtisodiy oʻzgarishlar roʻy berayotgan hozirgi bosqichida talabalarga taʼlim-tarbiya berish sifatini oshirish yoʻllari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda. Chunki, taʼlim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Oʻzbekistonda olib borilayotgan taʼlim islohoti bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga oʻtish jarayoni bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Shu sababli yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash, taʼlim sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish gʻoyasi kun tartibidagi dolzarb va ustivor vazifalaridan biri sifatida davlatimiz rahbari tomonidan taʼkidlanib kelinmoqda. Mamlakatimizda oʻquv-taʼlim hamda tarbiya tizimini jahon andozalariga muvofiq tarzda qayta tashkil etish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Hukumatimiz bu yoʻnalishga yordam beradigan qator hujjatlarni ishlab chiqdiki, ular orasida “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 2017–2021 yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirishning beshta ustivor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasini tasdiqlanishi katta ahamiyatga ega boʻldi. Respublikamizda oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham aholining oliy taʼlim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan maʼnan yetuk va jismonan barkamol yosh kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va maʼnaviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish oliy taʼlim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustivor yoʻnalishlaridan biri deb belgilab qoʻyilgan.

Respublikamizda taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, taʼlim mazmunini tubdan takomillashtirishni, oʻquv mashgʻulotlarining sifatini zamonaviy talablar darajasida koʻrsatish, oʻqitishning zamonaviy usullaridan samarali foydalana olishni talab etmoqda.

Qabul qilingan qarorlarda ta'lim muassasalaridagi moddiy-texnika bazasini talab darajasida tashkil etish, xususan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni o'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlash masalasi muhim qilib qo'yilgan.

San'at kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham tasviriy san'at kishilarni badiiy, ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbaalardan biri hisoblanadi. Mavjud barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o'tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi.

Ta'limning barcha yo'nalishlari kabi tasviriy san'atda ham tayaygina ishlar olib borilmoqda. Xususan, yangi turdagi ta'lim standartlari, o'quv reja va fan dasturlari tuzilib yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning dolzarb muammolarini hal etishda muhim o'rin tutadi.

TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI.

Umumiy ta'lim maktablarida tasviriyl san'at darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan xisoblanib, o'quvchilarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriyl san'at darslarida o'quvchilar ilmiyl bilim asoslarini egallaydilar, borliqni o'zlashtiradilar, bu esa ularni g'oyaviyl, aqliyl, axloqiyl, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, maktabda o'qitiladigan tas'viriyl san'at o'quv fanining o'zining maqsad-vazifasi — mazmun-mohiyatiga ko'ra:

1. Borliqni idrok etish (1- 4-sinflarda);
2. Badiiy qurish-yasash (1-4-sinflarda);
3. Narsani o'ziga qarab tasvirlash;
4. Kompozitsion faoliyat;
5. San'atshunoslik asoslari (san'atni idrok etish) kabi dars mashg'ulotlar asosida faoliyat ko'rsatadi.¹

Tasviriyl san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviyl e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stiradi. Maktabda o'qitiladigan tasviriyl san'at darslarining har bir turi (narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriyl san'at haqida suhbat) o'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

Tasviriyl san'atning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, jamiyatdagi go'zalliklarini to'liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalashdir. Go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyoqarashini boyitadi.

Estetikaning isonlarning ijodiy faoliyatlaridagi roli benihoya kattadir. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning asosi his-

¹ B.N. Oripov. Tasviriyl san'atni o'qitishning zamonaviyl pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi.(o'quv]-metodik qo'llanma) Toshkent – "ILM ZIYO" - 2013